

YOSHLARGA OILADA TA'LIM-TARBIYA BERISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK JIHLTLARI

Qo'shoqova Go'zal Uzoqboy qizi, talaba
To'raqulov Laziz Tirkashevich
Jizzax davlat pedagogika universiteti, katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada yoshlarga oilada ta'lim-tarbiya berishning ijtimoiy-psixologik jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, o'sib kelayotgan yoshlarning mukammal kamol topishida oila muhim tarbiya maskani ekanligi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. Yoshlar, oila, ta'lim-tarbiya, ota-ona, jamiyat, psixologik, tarbiya, muhit, sog'lom oila,

Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu - yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi.

Zero, har qanday jamiyatning istiqboli, taqdiri va taraqqiyoti yosh avlodning qanday tarbiyalanganligiga bog'liq. Chunki millat va mamlakat taqdirini yoshlar hal etadi. Albatta, yoshlar tarbiyasi qanchalik erta boshlansa, uning samaradorligini oshirishga qancha ko'p e'tibor qaratilsa, natijasi shunchalik yuqori bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Sog'lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat bo'lib o'sib ulg'ayishi ko'pgina talab va omillarga bog'liq ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Lekin ular orasida shunday hal qiluvchi mezonlar borki, bu haqda alohida to'xtalish o'rinli. Birinchidan, sog'lom bola - sog'lom va ahil oilaning mevasidir. Biz oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz", deb ta'kidlagan edilar.

Ajdodlarimizning boy ma'naviy qadriyatlari - millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildir. Ma'naviy va madaniy merosga voris bo'lgan har bir avlod bu merosdan quvvat oladi, bilim va tajribasini oshiradi, ilhomlanadi, ijtimoiy hayotimizdagi ma'naviy muhitning muayyan saviyada saqlanishi, aholining turli qatlamlarida milly g'urur, milliy g'oya, ajdodlar ijodiy dahosiga ehtirom hislarining yuzaga kelishi hamda tadrij takomili uchun farzandlarimiz tushuncha va ongiga milliy ma'naviy qadriyatlar vositasida ta'sir etish muhimdir. Yosh avlodga ilk bolalik davridan boshlab sharqona, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz o'zbekona urf-odatlar

va an'analari singdirish, milliy va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash farzand ma'naviy kamolotining muhim omili sifatida mutafakkir ajdodlarimiz mutaxassis olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar asosida e'tirof etilgan bo'lib, bu omilning samarali, muqobil yo'nalishlarini o'rganish va ishlab chiqish oilashunoslik oldida turgan muhim va dolzarb muammo sifatida o'z yechimini topmog'i zarur.

Oila tinch, mustahkam va farovon bo'lsagina, jamiyatda rivojlanish bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ma'naviy va ruhiy muhitning sog'lomligiga yetarli zamin yaratadi. Oilada psixologik tarbiya orqali dunyoqarash, xulq-atvor me'yorlari va ko'plab sifatlar singdiriladi. Oiladagi muhit - bu ota-onalarning va katta yoshdagi kishilarning har tomonlama olib borgan tarbiyaviy ish natijalari, oila a'zolarining o'zaro yuksak axloqiy munosabatlarining yig'indisi va kattalarning ijobiy ta'sir ko'rsatish namunasi natijasidir. Muhitning qanday yaratilishi asosan ota-onaning va oiladagi boshqa oila a'zolarining psixologiyasiga bog'liqligini hisobga olish kerak. Har bir oilaning sog'lom bo'lishi, ularda ijobiy psixologik muhit hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanayotgan insonga ta'sir etadi.

Jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi, inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki oilalarning nosog'lomligi, noqobil va nizoli oilalar, ajralishlar sonining ortishi jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga, bunday nosog'lom psixologik, nizo-janjalli, o'zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola- da ham keyinchalik nafaqat o'z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa, o'zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, har xil jamiyat manfaatlari, yurt manfaatlari zid bo'lgan salbiy tashqi kuchlar ta'siriga oson beriluvchan shaxsning shakllanishiga, shu asosda esa o'z oilasi xalqi, yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo'lishi mumkin.

Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi.

Sharq mamlakatlarida tarbiya asosan islomiy yo'nalishda beriladi. Islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Qur'oni Karimda" ham tarbiya muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bundan tashqari Al-Buxoriy hazratlarining hadislarida, sharq allomalarining yozma manbalarida farzand tarbiyasiga doir ko'plab ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, (38-hadis) "Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz". (625-hadis) "Har bir go'dak Islom tabiatida tug'iladi, so'ng ota-onasi uni yo yahudiy qiladi, yo nasroniy qiladi, yo majusiy qiladi". (136-hadis) "Hech bir ota-ona o'z farzandiga xulqu odobdan buyukroq meros berolmaydi". Rasululloh (a.s.): "Birontangiz o'zfarzandlaringizni tartib - intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir", deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga

sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda "Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring" deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlab o'tishim kerakki, zero ta'lim-tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ochib berilgan.

Oilada otaning roli va mavqeyi muhim masalani belgilaydi. Chunki ota shaxs sifatida har qanday yoshdagi farzandlarning ko'z oldida o'zini ko'rsata olishi kerak. Kichik yoshdagi bola oiladagi ota obro'sini uning egallab turgan mavqeyiga qarab belgilaydilar. Bu yerda otaning nafaqat farzandiga, balki butun oilaga ham masalalarni hal etishi nazarda tutiladi. O'smir yoshdagi bolalar esa ota-onasidan tashqari o'qituvchilar va katta yoshdagi qarindoshlarini ham kuzata boshlaydi. Ular bilan teng muloqotda bo'lishga harakat qiladi. Shu paytda o'smirni qiziqtirgan masala va muammolarni kim tezroq hal qilsa, o'smir shu inson bilan muloqotga yaxshi kirishadi O'spirin yigit va qizlar o'zlarining ota va onasini ardoqlay boshlaydi. Ularni samimiy hurmat qiladi, xayrixohlik bilan mehribonlik ko'rsatish orqali munosabatda bo'ladi. Lekin ular o'zlariga nisbatan ham xuddi shunday munosabatni talab qiladilar. Oiladagi munosabatlar ta'sirida ilk bolalikdan umumiy ishga sodiqlik, vatanparvarlik, qaylik qadr-qimmat kabi yuksak insoniy tuyg'ular shakllana boshlaydi. Turmushdagi samimiy va oqilona munosabat, iliq ruhiy muhit ta'siri natijasida oila a'zolarida kamtarlik ko'ngil chanlik, iltifot, sabr, uyatchanlik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, vijdoniylik, mehnatga mas'uliyat izzat-nafs, tejamkorlik kabi shaxs xislatlari tarkib topadi. Agarda oiladagi turmush munosa battar qo'pollik, andishasizlik negiziga qurilgan bo'lsa, u holda oila a'zolari ruhiy dunyosida kekkayish, yalqovlik, mas'uliyatsizlik, shuhratparastlik illatlari rivojlanishi mumkin.

Shuning uchun ham oilada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni vujudga keltirish va uni milliy g'oya ruhida mustahkamlash davlat ahamiyatiga molik masaladir. Negaki, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o'zgarishlar, undagi yutuq va kamchiliklar, salbiy oqibatlar, murak- kabiliklar va ziddiyatlar oilada o'z aksini topadi. Oila - jamiyat negizi, har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadri- yatlar takomil topadigan, huquqiy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridandir.

Oilada mustahkam poydevor asosida qurilib, unda sharqona va jahon andozasiga monand axloqiy va ma'naviy qadriyatlar qaror topsa, sog'lom avlodni voyaga yetkazishda yetakchi o'rinni egallasa, bunday oila ostonasidan Vatan, millat, inson kamoloti, yangi sog'lom avlod kelajagi boshlanadi. Jamiyat taraqqiyotiga farzandlar kamoli orqaligina erishiladi. Demak, barkamol farzandlarni tarbiyalash har bir davrning dolzarb vazifalari- dan biri bo'lib kelgan va bu masalaga ijodiy yondashuv muhimligicha qolaveradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emas, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy dunyosini

zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o'zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e'tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta'sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo'ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota-bobolariga, o'z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an'alariga sodiq bo'lib kamol topishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kech. -T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Шоумаров Ғ.Б,Усмонов.Э.Ш, Умаров Б.М. К совершенствованию содержания этики и психологии семейной жизни. Тиз.док.рес.науч.конф. Ташкент.1991.
3. Abdurauf Fitrat. Oila, yoki oila boshqarish tartiblari. -T.: Ma'naviyat, 2006.
4. Oila ensiklopediyasi. - T.: Fan va texnologiya, 2015.
- 5, Qur`oni Karim. (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur).T., «Cho`lpon»,1992.